


“TASDIQLAYMAN”

O‘zbekiston Respublikasi
Kambag‘allikni qisqartirish va
bandlik vazirligi huzuridagi
Jamoatchilik kengashi raisi

 O.Ashurov

2025-yil ____ -oktabr

**Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi huzuridagi Jamoatchilik
kengashi majlis
BAYONI**

____ – son

2025-yil 20-oktabr

Toshkent sh.

Raislik qildi: Jamoatchilik kengashi raisi O.Ashurov

Ishtirok etdi: Vazirlik markaziy apparati boshqarma boshliqlari,
Jamoatchilik kengashi a‘zolari (ro‘yxat asosida).

KUN TARTIBI:

- 1. Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi huzuridagi
Jamoatchilik kengashining ahamiyati, vazirlik faoliyatidagi asosiy
vazifalarni bajarishda jamoatchilik nazoratini kuchaytirish va
fuqarolar bilan ochiq muloqotni tizimli yo‘lga qo‘yish to‘g‘risida.**
- 2. Vazirlik tomonidan nodavlat notijorat tashkilotlariga davlat ijtimoiy
buyurtmasini berish to‘g‘risida**

(Zaxidov, Ashurov, Jo‘rayev, Turdiboyeva, Alimova, To‘rabekov, Mixliyev, Mahmudaliyev,
Yakovleva, Lutfiddinov, Karimjonov, Kamilov, Sviridova, Haydarov, Abduraxmanova,
Muxtoraliyev, Soatova, Murodillayeva, Aliyeva, Zaxidov.)

Yig‘ilishni O‘zbekiston Respublikasi Kambag‘allikni qisqartirish
va bandlik vaziri **B. Zaxidov** kirish so‘zi bilan ochib berdi.

“Bandlik va aholi farovonligi masalasi – bu nafaqat davlatning, balki
jamiyatning ham umumiy ishi. Jamoatchilik kengashi a‘zolari bilan hamkorlikda har
bir fuqaroga munosib ish va barqaror daromad topish imkonini yaratishimiz kerak.
Bu yo‘lda ochiqlik, hamjihatlik va natijadorlik muhim. Shunday ekan, barcha
ishlarni birga, maslahatlashgan holda olib borishimiz lozim. Har bir taklif, har bir
fikir – bizni oldinga yetaklaydi” – dedi vazir Botir Zaxidov.

Shundan so'ng, yangi tuzilgan Jamoatchilik kengashi a'zolariga kengash raisini tanishtirdi. O'zbekiston Ish beruvchilar konfederatsiyasi raisi, Jamoatchilik kengashi raisi **Otabek Ashurov** kengashning yangi nizomi va unda belgilangan asosiy vazifalar haqida ma'lumot berdi.

Otabek Ashurov Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi huzuridagi Jamoatchilik kengashi faoliyatini samarali tashkil etishda jamoatchilik nazoratini kuchaytirish va fuqarolar bilan ochiq muloqotni tizimli yo'lga qo'yish haqida to'xtalib, bu boradagi kamchiliklarni hamjihatlikda bartaraf etish zarurligini ta'kidladi.

Topshiriqlar ijrosini ta'minlashda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining **"Fuqarolik jamiyati institutlarini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"** 2024-yil 26-avgustdagi PF-124-sonli Farmoni hamda Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligining **"Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi huzurida Jamoatchilik kengashini tashkil etish to'g'risida"** 2025-yil 21-iyuldagi 171-sonli buyrug'i talablariga qat'iy rioya etish lozimligini ko'rsatib o'tdi.

Shundan so'ng Jamoatchilik kengashi a'zolari vazirlik faoliyatiga oid dolzarb masalalar yuzasidan **taklif va mulohazalarini bildirishdi**.

Baxtiyor Mahmudaliyev kasbga o'qitish markazlarini xususiy sektorga o'tkazish – ish beruvchilar uchun o'zlariga kerakli kadrlarni tayyorlashda qulaylik tug'dirishini aytib o'tdi.

Vazir B. Zaxidov amaldagi tartibga asosan tarmoqlar hammasi o'zini standartini ishlab chiqarishi kerakligini, vazirlikning ham mehnat xavfsizligi, kosmetologiya yo'nalishlarida o'z standartlari borligini ma'lum qildi. O'quv markazlarni xususiy sektorga o'tkazish masalasiga kelsak, bu borada tizimni boshqaruvchi mas'ul tashkilot bo'lgani yaxshi. B. Zaxidov bu masala bo'yicha hukumat bilan muhokamalar ketayotganini aytdi.

"Qaysi hududda qaysi kasblarga talab yuqori ekanligini o'rganish va tahlil qilish orqali o'qitishni yo'lga qo'yishimiz kerak. Masalan, Farg'ona vodiysida yengil sanoat, tikuvchilikka kasblariga ehtiyoj yuqori. Bundan tashqari, o'quv markazlarida kafel terish bo'yicha kurslar yo'q. Markazlardagi kasbiy standartni xalqaro standartlar bo'yicha takomillashtirish kerak" – dedi kengash a'zosi **Yuliy Yakovleva**.

B. Zaxidov bu masala bo'yicha qarashlarimiz bir xil, dedi. Muammo esa kasbga o'qitishda bilim beradigan malakali mutaxassislar yetishmasligida ekanligini bildirdi. Masalan, O'zbekistonda qurilish sohasida elektrik va kafelchilar Turkiyadan bir yarim baravar kam haqqa ishlashadi. Albatta, ta'limni yaxshilash kerak. Bu bo'yicha xorijiy auditorlik konsalting firmasi bilan kasbiy standartlar bo'yicha tahlillar olib borishga kelishilgan.

Natalya Svetlova yoshlarni ishchi kasblarga qiziqtirish borasida maktablarda, ijtimoiy tarmoqlarda targ'ibot-tashviqot ishlarini kuchaytirish masalasini o'rtaga tashladi.

Abduvali Haydarov dasturchilik va elektron tijoratni rivojlantirish bo'yicha takliflarini bildirdi.

Bahodir Kamilov kasbga o'qitishda Bandlik vazirligini regulyator sifatida vakolati saqlanib qolishi kerak dedi. Shuningdek, kasblarni tahlil qilgan holda, kelajak kasblariga tayyorlash bo'yicha loyihalar ishlab chiqish taklifini bildirdi.

Shahnoza Soatova xalqaro tashkilotlar bilan istiqbolli dasturlarni kengaytirish va bunda vazirlikning faol ishtirokini yo'lga qo'yishni taklif qildi. Shuningdek, fuqarolar o'z hududlarida qaysi kasblarga o'qitish bo'yicha markazlar borligi, qaysi kasblarga talab yuqoriligi to'g'risida ma'lumotga ega bo'lishi va bundan keng foydalanishi uchun **kasblar geografiyasi to'g'risidagi ma'lumotlar bazasini** yaratishni taklif qildi.

Vazir bu taklifga javoban, kasblarga bo'lgan talabni yaratish bo'yicha platforma yaratish ustida ish olib borilayotganini ma'lum qildi. Kooperatsiya tartibida ishlashni rivojlantirish va kooperatsiyaga birlashtirish bo'yicha o'rganishlar olib borilib, loyiha ishlab chiqish kerakligini aytdi.

Yana bir kengash a'zosi **Kamola Aliyeva** mehnat munosabatlari, gender tenglik, ish joyida tazyiq va zo'ravonlikka qarshi vazirlik tomonidan olib borilayotgan ishlar to'g'risida ma'lumot almashishni keng yo'lga qo'yish kerakligini aytdi. Shuningdek, homilador va yosh bolali ayollar bilan mehnat shartnomasini bekor qilish holatlariga qarshi kurashish yuzasidan jamoatchilik kengashi a'zolari bilan hamkorlikdani yo'lga qo'yishni taklif qildi.

Vazir K.Alievaning bu taklifini qo'llab-quvvatlab, xotin-qizlar bandligi bo'yicha hamkorlikda ishlashga va birgalikda dastur ishlab chiqishga tayyorligini ma'lum qildi.

Davron Lutfiddinov esa kasblar va bandlik sohasi bo'yicha ijtimoiy so'rovnomalarni ko'proq o'tkazish va olib borilayotgan ishlar bo'yicha targ'ibot ishlarini kuchaytirish lozimligini aytdi. Shuningdek, "Yuksalish harakati" vakili sifatida vazirlik Jamoatchilik kengashi tashabbuslarini qo'llab-quvvatlashini bildirdi.

Yig'ilishda mazkur tuzilma faoliyati samaradorligini yanada oshirish bilan bog'liq dolzarb vazifalar hamda Jamoatchilik kengashining yangi nizomini tasdiqlash va boshqa tashkiliy masalalar ko'rib chiqildi.

Shundan so'ng, Otabek Ashurov kun tartibidagi 2-masala yuzasidan S.Xaytmuratovga so'z berdi.

Kun tartibidagi 2-masala yuzasidan **S.Xaytmuratov** O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "**Fuqarolik jamiyati institutlarini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida**" 2024-yil 26-avgustdagi PF-124-sonli Farmoniga ko'ra, fuqarolik jamiyati institutlariga tegishli soha va tarmoqlarda mavjud muammolarning ta'sirchan yechimini nazarda tutuvchi tashabbusli loyihalarni amalga oshirish uchun davlat ijtimoiy buyurtmasini olish to'g'risida manfaatdor davlat organiga taklif kiritish huquqi berilishini ta'kidladi. Bunda tashabbusli loyiha belgilangan tartibga muvofiq davlat organi huzuridagi jamoatchilik kengashi tomonidan ijobiy baholangan taqdirda, uning tashabbuskoriga davlat organining byudjetdan tashqari mablag'lari hisobidan bazaviy hisoblash miqdorining **ming baravarigacha** miqdorda to'g'ridan-to'g'ri shartnoma tuzish yo'li bilan ijtimoiy buyurtma berilishi mumkin.

2025-yil avgust oyida 3 ta nodavlat-notijorat tashkilotlaridan loyiha takliflari kelib tushdi.

Xususan, Toshkent viloyati Tashabbuslarni rivojlantirish va qo'llab-quvvatlash "Nihol" markazi tomonidan nogironligi bo'lgan shaxslar uchun ish o'rinlarini kvotalash, 18-35 yoshdagi ayollarning ijtimoiy-iqtisodiy faolligi, Kambag'allikni qisqartirish va bandlikka ko'maklashish bo'limlari orqali yoshlarni o'qitish, Kadrlar tayyorlash va kasb-hunar ta'limini rivojlantirishda ish beruvchilarning ishtiroki, Respublika "Istiqbolli avlod" ijtimoiy axborot markazi tomonidan Tikuvchilik kurslari bitiruvchilarining kasbiy tayyorgarligi va mehnat bozoriga integratsiyasi tahlili, Jizzax viloyati "Qalb nuri" ayollar va ularning oila a'zolarini ijtimoiy-huquqiy qo'llab-quvvatlash markazi tomonidan ayollarning bandlikka kirish imkoniyatlarini cheklayotgan shart-sharoitlar yuzasidan ijtimoiy so'rovnomalar o'tkazish va tahlil qilish bo'yicha loyiha takliflari kelib tushgan.

Loyiha takliflari Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 22-fevraldagi 135-son qarori bilan tasdiqlangan nizomga muvofiq ko'rib chiqildi.

Shuningdek, O.Ashurov **Jamoatchilik kengashi a'zolariga** faoliyatlarini erkin va qulay tarzda olib borishlari uchun vazirlik binosidan zarur shart-sharoitlarga ega alohida xona ajratilganini ma'lum qildi.

Yig'ilish yakunida kengash faoliyatini yanada samarali tashkil etish, jamoatchilik nazoratini kuchaytirish va fuqarolar bilan ochiq muloqotni keng yo'lga qo'yish bo'yicha istiqbolli yo'nalishlar belgilab olindi.

Kun tartibida ko'tarilgan masalalar yuzasidan yig'ilish

QAROR QILADI:

1. Jamoatchilik kengashi vazirlik faoliyatining ochiqligi va shaffofligini ta'minlash maqsadida keng jamoatchilik va fuqarolik institutlari bilan samarali muloqotni yo'lga qo'yish, vazirlik faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirishning mustahkam mexanizmlarini ishlab chiqish choralarini ko'rishi belgilandi.


2. Kengash kotibi (G. Alimova) vazirlikda nodavlat va notijorat tashkilotlari bilan hamkorlik qilish bo'yicha mas'ul etib belgilandi. Jamoatchilik kengashi faoliyati samaradorligini har yili baholanishini, uning natijalarini vazirlikning rasmiy veb-sayti hamda ijtimoiy tarmoqdagi sahifalari orqali e'lon qilib borilishini shuningdek, "Yuksalish" harakatining so'roviga asosan Jamoatchilik kengashi faoliyatiga doir ma'lumotlarni taqdim etib borishi belgilandi.

3. Jamoatchilik kengashi a'zolari bildirgan masalalar asosida hamkorlikda istiqbolli loyiha va platformalar yaratish takliflarini ishlab chiqish va Jamoatchilik kengashining keyingi yig'ilishlarida aniq bir yo'nalish bo'yicha, shu masalalar yechimini amalga oshirish belgilab olindi.

4. Toshkent viloyati Tashabbuslarni rivojlantirish va qo'llab-quvvatlash "Nihol" markazi, Respublika "Istiqbolli avlod" ijtimoiy axborot markazi, Jizzax viloyati "Qalb nuri" ayollar va ularning oila a'zolarini ijtimoiy-xuquqiy qo'llab-quvvatlash markazi tomonidan mablag' ajratish maqsadga muvofiq deb topildi.

- Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi yuqoridagi loyiha takliflarini o'zining budjetdan tashqari mablag'lari hisobidan belgilangan tartibda moliyalashtirishi ma' qullandi.

Kengash kotibi



G. Alimova